

**DUNYO SIYOSIY XARITASINI O'RGANISHDA INTERFAOL  
METODLARDAN FOYDALANISH**

*Arabboyev Asliddin Rafiqjon o'g'li*

*Andijon davlat universiteti*

*Tabiiy fanlar fakulteti geografiya yo'nalishi*

*+998901403566*

**Annotatsiya;** Ushbu maqolada dunyo siyosiy xaritasini o'rganishda interfaol metodlardan foydalanish bo'yicha taklif va tavsiyalar berib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** Xarita, jahonning siyosiy xaritasi, geografik o'rinni, yirik va mitti, materiklar va subregionlar

### **KIRISH**

Bugungi axborot-texnologiyalari rivojlanib borayotgan bir davrda dunyoda sodir bo'layotgan voqe va hodisalarini bilish uchun ham xaritani bilish muhim sanaladi.

Geografiya fanini globus va xaritasiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Zero, Geografiyaning tili – xaritadir.

Xarita – yerning va boshqa sayyoralar yuzasining kichraytirilib va umumlashtirilib, shartli belgilar bilan tekis yuzaga tushirilgan tasviri.

Xaritalarda Yer yuzasidagi hamma narsani ko'rsatib bo'lmaydi. Shuning uchun xaritalar nimalarni aks ettirishiga qarab har xil bo'ladi. Geografik xaritalarni shartli ravishda 3 turga bo'lish mumkin: tabiiy geografik, siyosiy-ma'muriy va ijtimoiy-iqtisodiy xaritalar.

Siyosiy-ma'muriy xaritalarda dunyodagi davlatlar, ularning ma'muriy qismlari (viloyatlari, tumanlari, shaharlari), asosiy transport yo'llari va boshqalar tasvirlanadi.

### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA**

Atlas – to'la va aniq ma'lumotga ega bo'lgan, yagona dastur asosida tuzilgan, tartibga solingan xaritalar to'plamidir. "Atlas" atamasi flamand xaritashunosi Merkator tomonidan kiritilgan. U o'zi tuzgan xaritalar to'plamini (1595-yil) Livanning afsonaviy qiroli Atlas nomi bilan ataydi. Birinchi xaritalar to'plami II asrda Klavdiy Ptolemy tomonidan tuzilgan.

Qavariq Yer yuzasini tekis yuzada tasvirlash uchun xarita andazalaridan foydalilanadi. Xarita andazalari sayyoramizning qavariq yuzasini tekis yuzada tasvirlashning matematik usullaridir. [1]

Jahonning siyosiy xaritasida 2022-yil boshi holatiga ko'ra jahon hamjamiyati, xususan, Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) tomonidan mustaqilligi rasman tan olingan 194 ta suveren davlat mavjud. Bulardan 193 tasi BMT faoliyatida a'zo davlatlar sifatida, 1 tasi (Vatikan) esa kuzatuvchi davlat bo'lib ishtirok etadi. Davlatlar

bir-biridan turli xususiyatlari bilan ajralib turadi. Bunday muhim jihatlaridan biri hududning kattaligi hisoblanadi. Xususan, 29 ta mustaqil davlatning maydoni 1 mln km<sup>2</sup> dan katta bo‘lib, 12 tasining hududi 2 mln km<sup>2</sup> dan, 6 tasining maydoni 5 mln km<sup>2</sup> dan yirikdir

Jahonning siyosiy xaritasida maydoni 1 ming km<sup>2</sup> ga yetmaydigan 24 ta mustaqil davlat bor. Bunday toifadagi davlatlar turli qit’alarda, xususan, Yevropada (Vatikan, Monako, San Marino, Lixtenshteyn va boshqalar), Osiyoda (Maldiv Respublikasi, Singapur, Bahrayn), Amerikada (Sent Kits va Nevis, Grenada, Barbados va boshqalar), Avstraliya va Okeaniyada (Nauru, Tuvalu, Marshall orollari va boshqalar) joylashgan.

Jahon siyosiy xaritasida zamonaviy tarixiy davrda, ya’ni 1990-yildan keyin eng katta o‘zgarishlarni keltirib chiqargan voqeа — 1991-yil sobiq Sovet Ittifoqining parchalanishi bo‘ldi. Buning natijasida 15 ta yangi mustaqil davlat vujudga keldi: Armaniston, Belarus, Estoniya, Gruziya, Latviya, Litva, Moldova, Ozarbayjon, Qirg‘iziston, Qozog‘iston, Rossiya Federatsiyasi, Tojikiston, Turkmaniston, Ukraina, O‘zbekiston.

Yevropada 1991–1992-yillarda Yugoslaviyaning parchalanishi natijasida Sloveniya, Xorvatiya, Bosniya va Gersegovina hamda Makedoniya (2019-yildan Shimoliy Makedoniya deb ataladi) davlatlari mustaqillikka erishdi. Yugoslaviya tarkibida o‘shanda faqat Serbiya bilan Chernogoriya qoldi. 2006-yili esa Chernogoriya Serbiyadan ajralib, mustaqil davlatga aylandi. 1993-yil 1-yanvar kuni Chexoslovakiya davlati o‘rnida Chexiya va Slovakiya mustaqil respublikalari tashkil topdi. Jahon siyosiy xaritasidagi bu o‘zgarishlar xalqaro sotsialistik tuzumning barham topishi bilan bog‘liq. Shuningdek, ushbu jarayon bilan bog‘liq ravishda 1990-yil Yevropada ikki nemis davlati (Germaniya Federativ Respublikasi va Germaniya Demokratik Respublikasi) qo‘silishi natijasida yagona Germaniya Federativ Respublikasi, Osiyoda esa Yaman Arab Respublikasi va Yaman Xalq Demokratik Respublikasi birlashib, yagona Yaman Respublikasi tashkil etildi. Boshqa siyosiy jarayonlar ta’sirida ham jahon siyosiy xaritasida yangi suveren davlatlar paydo bo‘lishi davom etdi. Afrikada 1993-yil ko‘p yillik urush natijasida Eritreya Efiopiya tarkibidan ajralib, mustaqil davlat maqomiga ega bo‘ldi. Okeaniyada 1994-yil Palau davlati AQSH nazorati ostidagi hududdan mustaqil davlatga aylandi. Janubi-sharqiy Osiyoda 2002-yil Sharqiy Timor mustaqil davlatlar qatorini kengaytirdi. Afrika qit’asida 2011-yil 9-iyulda Sudan tarkibidan Janubiy Sudan davlati ajralib chiqdi. U hozirgi paytda dunyodagi eng yosh mustaqil davlat hisoblanadi. [2]

## NATIJALARI VA MUHOKAMA


Umumiyl o‘rta ta’lim maktablariga dunyoning siyosiy xaritasini bir nechta interfaol metodlar yordamida dars tashkil etilsa, o‘quvchilarning darsga bo’lgan munosabati o‘zgaradi.

### 1.Davlatlarning geografik o‘rniga ko‘ra bo‘lib o‘rganish:

- a) Orol mamlakatlar: Indoneziya, Yaponiya, Shri Lanka, Buyuk Britaniya, Irlandiya, Madagaskar, Kuba, Yamayka
- b) Yarimorol mamlakatlar: Saudiya Arabistoni, Ispaniya, Italiya, Koreya Respublikasi, Vyetnam
- c) Dengizbo'yi-kontinental davlatlar: Fransiya, Germaniya, Xitoy, Misr, AQSH, Kanada, Avstraliya
- d) Dengizga chiqish imkoniyatiga ega bo'lmanan mamlakatlar: Avstriya, Belarus, Qozog'iston, O'zbekiston, Afg'oniston, Mongoliya, Chad, Efiopiya, Uganda, Boliviya


## **2.Yirik va mitti davlatlarga bo'lib o'rghanish.**

Masalan, yirik davlatlarga Rossiya, Kanada, Xitoy, AQSh, Braziliya, Avstraliya, Hindiston, Argentina, Qozog'iston, Jazoir bo'lsa, mitti davlatlarga Malta, Maldiv respublikasi, Sen-Kits va Nevis, Marshall orollari, Lixtenshteyn, San-Marino, Tuvalu, Nauru, Manako, Vatikan



## **3.Materiklar bo'yicha o'rghanish.**

Shimoliy Amerika davlatlari:



Yevrosoyo materigi davlatlari



Janubiy Amerika davlatlari:



Afrika davlatlari:



#### **4. Rivojlanganlik darajasiga bo'lib o'rganish.**

BMT tomonidan 3 ta yirik blokka bo'linadi: rivojlangan, rivojlanayotgan va o'tish iqtisodiyotidagi mamlakatlar.

Rivojlangan mamlakatlar: AQSH, Kanada, Yaponiya, Yangi Zelandiya, Isroil, Koreya Respublikasi, Singapur va Janubiy Afrika Respublikasi

Rivojlanayotgan mamlakatlar: Xitoy, Hindiston, Braziliya, Meksika

O'tish iqtisodiyotidagi mamlakatlar : Sobiq ittifoq respublikalari

#### **5. Subregionlarga bo'lib o'rganish.**

**Yevropa subregionlar:** Shimoliy Yevropa, Janubiy Yevropa, G'arbiy Yevropa, Sharqiy Yevropa

**Osiyo subregionlari:** Sharqiy Osiyo, Markaziy Osiyo, Janubi-g'arbiy Osiyo, Janubiy Osiyo, Janubi-sharqiy Osiyo

**Afrika subregionlari:** Shimoliy, G'arbiy, Sharqiy, Markaziy, Janubiy

**Lotin Amerikasi subregionlari:** Meksika, Markaziy Amerika, Vest-indiya, And mamlakatlari, "Gviana uchburchagi", Braziliya, La-Plata mamlakatlari

#### **XULOSA**

Xulosa qilib, shuni aytishim mumkinki, dunyo siyosiy xaritasini o'rganishda davlatlarning geografik o'rniga, yirik va mitti davlatlarga, materiklar bo'yicha, rivojlanganlik darajasi va subregionlarga bo'lib o'rganish kabi interfaol metodlardan foydalanish o'quvchilarda mustaqillik, vatanparvarlik, topag'onlik, intellektualik kabi bilimlarini oshiribgina qolmay, ularni keyingi ishlarida ham muhim ahamiyat kasb etadi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. P.G'ulomov, H.Vahobov – 7-sinf O'rta Osiyo va O'zbekiston tabiiy geografiyasi.Toshkent-2017
2. V. N. Fedorko, N. I. Safarova, J. A. Ismatov, E. Y. Nazaraliyeva – 10-sinf geografiyasi. Toshkent-2022. – 192 b.
3. 9-sinf o'quv atlasi